

**OTM RAHBAR KADRLARNING IQTISODIY KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

O‘rmonova Nigoraxon Abdulhamidovna

Oriental Universiteti

Ta‘lim menejmenti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada rahbar xodimlarning malaka oshirish jarayonida iqtisodiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonlari haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, ta‘lim, rahbar, iqtisodiy kompetensiya, ta‘lim-tarbiya.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, yurt istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan rahbar kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzluksiz tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy Barkamol avlod bolalar maktablari direktorlari nafaqat pedagogika, psixologiya, ma‘muriy boshqaruv asoslarini bilishi, balki moddiy, moliyaviy, mehnat resurslari boshqaruvini marketing tahlili asosida tashkil etish, ta‘lim muassasasining iste‘molchilik, buyurtmachilik, tadbirkorlik kabi turli faoliyatlarida ham iqtisodiy samarali qarorlar qabul qila olishi lozimligi talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi VMning 2019-yil 23-sentabrdagi “oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 797-son qarorida belgilab o‘tilgan vazifalarni samarali va yuqori professional darajada bajarishga qodir rahbar xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzluksiz tizimini tashkil etish, takomillashtirib borish, ularning kasbiy mahorati sifati va darajasini oshirishmuhim vazifa sifatida ta‘kidlandi. O‘z navbatida kasb-hunar ta‘limi sohasida ham rahbar, ham pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, ularning kasbiy malakasini oshirishning zamonaviy shakllarini hamda muqobil, uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

“Kompetentlik” tushunchasi ta‘lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan, kompetentlik “noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” ni anglatadi.

Kompetentlik deganda, ko‘pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo‘luvchi bilim va tajribalariga asoslangan integratsiyalashgan sifatlar nazarda tutiladi. N.A.Muslimov kompetentlik tushunchasini shaxsiy sifatlar to‘plami va kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida namoyon bo‘lishi bilan uning mohiyatini ochib bergan. “Kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiyahamiatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi”

Shuningdek, professional ta‘lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasida Ta‘limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi ta‘lim muassasalari tarmog‘i tashkil

etilmoqda. Oliy ta'limi tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, maqsadli, kontrakt va buyurtmalar asosida ta'lim xizmatlarini tashkil etish va rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilayotgan bugungi kunda innovatsiyalarga nisbatan ochiq, strategik rejalashtiruvchi, murakkab sharoitda ham oqilona qaror qabul qila oluvchi, iqtisodiy muammolarni o'z vaqtida mustaqil hal eta oladigan, iqtisodiy bilimga ega, tashabbuskor rahbar xodimlarga talab ortib bormoqda. Shu bilan birga professional ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlash, maqsadli buyurtmalar, o'quvchilarni davlat buyurtmasi, to'lov-kontrakt, tegishli vazirlik, idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari asosida ta'lim xizmatlarini tashkil etish, moliyalashtirish, ta'lim tizimiga grantlar, investitsiyalarni keng jalb etish, mavjud resurslardan samarali va oqilona foydalanish, moliyaviy resurslar hisob va hisobotlarni elektron vositalar asosida axborotlashtirish, davlat xaridlarini tashkil etish, budjetdan tashqari mablag' ishlab topish faoliyatini rivojlantirish va pirovard natijada professional ta'lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash kabi vazifalar boshqaruv xodimlarining iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalariga yangi talablarni yuklab, ularning iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Kompetentlik – shaxsiy sifatlar to'plami bo'lib, muayyan sohadagi vazifalarni egallangan muhim, doimiy rivojlanib boruvchi kompetensiyalar asosida bajara olish qobiliyati. Shuningdek, kompetentlik tushunchasining mohiyatini amaliyotga yo'naltirilgan bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyat, xulq atvor kabi integratsiyalangan shaxsiy sifatlar to'plami tashkil etar ekan, iqtisodiy kompetentlik tushunchasini quyidagichi izohlashimizga zamin bo'ldi:

“Iqtisodiy kompetentlik - jamiyat rivojlanishiga mos iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalarni doimiy egallab borish qobiliyati bo'lib, turli iqtisodiy vaziyatlarda ularning amaliyotga maqsadli tatbiqi bilan bog'liq shaxsiy rivojlanib boruvchi sifatlar yig'indisidir”.

Iqtisodiy kompetentlik va uning tarkibiy qismlari bilan bog'liq masalalar ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o'rganilgan va tadqiqotlari doirasida u yoki bu darajadagi xulosalar shakllantirilgan bo'lsa-da, uning muayyan tarkibiy komponentlariga quyidagicha izoh beriladi.

OTM rahbarlari iqtisodiy kompetentligining tarkibi bir biriga bog'liq bo'lgan quyidagi komponentlardan iborat:

- motivatsion – jamlangan va yetarlicha barqaror ehtiyojlar tizimi, iqtisodiy faoliyat uchun muhim sabablar, turli iqtisodiy kompetensiyalarga ega bo'lishga qiziqish bilan tavsiflanuvchi;
- kognitiv – asosiy iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi tizim (iqtisodiyot, iqtisodiy qonunlar, talab, taklif, mahsulot), iqtisodiy nazariyalar, tushunchalar, modellar, davlatning iqtisodiy siyosatini olib borishga yondashuvlar, iqtisodiyotning xalqaro muammolari; kasbiy faoliyatda iqtisodiyot asoslari (qonunlar, korxonaning iqtisodiy faoliyati usullari, iqtisodiy rejalashtirish, nazorat va audit va boshqalar).
- amaliy - iqtisodiy muammolar va vaziyatlarni hal qilish, iqtisodiy ko'nikma va qobiliyatlar kombinatsiyasiga asoslangan iqtisodiy hisob-kitoblarni olib borish, biznes rejalarni tuzish, buxgalteriya hisobini yuritish, turli xil iqtisodiy vaziyatlarda kasbiy muammolarga iqtisodiy yechim tanlashni amalga oshirish, iqtisodiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish, fuqarolik iqtisodiy xatti-harakatlariga rioya qilish va boshqalar.
- shaxsiy - bir qator muhim iqtisodiy fazilatlardan iborat: faollik, mustaqillik, ijodkorlik, samaradorlik, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik.

Iqtisodiy kompetentlik tushunchasi bilan yondosh mazmunda, muammo sifatida belgilangan oliy ta'limi tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligi negizida qanday sifatlar aks etishi, uning mohiyati, oliy ta'limi tizimi boshqaruv xodimlari, o'zlarida iqtisodiy kompetentlikning qanday sifatlarini yoritib olishi zarurligi borasida yuzaga keladigan savollar "oliy ta'limi tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligi" tushunchasini mohiyatan tadqiq qilish zaruriyatini belgilaydi.

OTM rahbarlari zarur kasbiy fazilatlar bilan bir qatorda, turli murakkablik darajasidagi iqtisodiy vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradigan kasbiy mahoratni biz oliy ta'lim muassasalari boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligi sifatida tahlil qilib, uning mohiyatini aniqlashni zarur deb belgiladik.

Ta'lim muassasasi rahbarining iqtisodiy kompetentligi masalasi muhim omil sifatida ko'plab olimlar tomonidan ilmiy o'rganilgan. Misol tariqasida:

I.I.Juklines o'zining ilmiy ishlarida ta'lim muassasasi rahbarining iqtisodiy kompetentligini quyidagicha ta'riflagan: "Ta'lim muassasasi rahbarining iqtisodiy kompetentligi - shaxsiy sifatlar tavsifi bo'lib, kompetensiyalar tizimidan iborat bo'lgan, bilimlar, ko'nikmalar, ish tajribalari asosida oqilona iqtisodiy qarorlar qabul qilishga harakatlarni safarbar qilish va rahbarning muayyan iqtisodiy muammolarni hal qilishga tayyorlik darajasi".

Y.A.Varkinaning ilmiy ishlarida "iqtisodiy kompetentlik - bu shaxsning integrativ sifati bo'lib, maxsus kompetensiyalar (marketing, tadbirkorlik, xujalik-huquqiy) majmui bilan tavsiflanadi shuningdek, egallangan iqtisodiy bilim, ko'nikma va tajribalarni va ma'lum faoliyat usullarini qo'llay olish qobiliyatini aks ettirib, ustuvor qadriyatlar va motivlar bilan tartibga solinadigan doimiy shaxsiy rivojlanish asosida ta'lim muassasasi faoliyatini ta'minlashdir" deb ta'riflagan.

Demak, bugungi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida, malaka oshirish jarayonlarida oliy ta'lim tizimi muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tizim boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

– oliy ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy faoliyatlari sohasiga oid seminar-treninglar, vebinarlar, boshqaruvning iqtisodiy muammolariga oid konferensiyalar, mustaqil iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish, qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish asosida malaka oshirish uzluksizligini ta'minlash;

– bevosita malaka oshirish kurslarida, o'quv dasturlari va tegishli modullar mazmunlarini tizim boshqaruv xodimlarining real iqtisodiy faoliyatlari natijasida yuzaga keladigan o'quv ehtiyojlari va talablariga moslashtirish. Muammoli, keys stadi, loyihaviy metodlar elementlarini o'z ichiga olgan andragogik shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslangan ta'lim jarayonlarini keng joriy etish;

– oliy ta'lim tizimi boshqaruv xodimlari malaka oshirish jarayonlarining turli shakllarida, iqtisodiy kompetentlik tarkibini tashkil etuvchi kompetensiyalarni faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish;

– oliy ta'lim tizimi boshqaruv xodimlari iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etilishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muslimov N., Usmonboeva M., Sayfurov D., Turaev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T., 2015.
2. Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish. // «Zamonaviy ta'lim», 2018, 2-son.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Diss. ped. fan. dok. - T., 2007.
4. Juklinklar I.I. Ta'lim muassasalari rahbarlarining uzluksiz ta'lim tizimidagi iqtisodiy vakolatlarining shakllanishi. // Interution materiallari. Ilmiy va amaliy. Balki. - S.- Pb, 19 aprel. 2012-yillar.